

HAQIQAT VA YOLG‘ON: INSON HAYOTIDAGI O‘RNI VA OQIBATLARI

Muallif: **Baltayeva Zinnat Mahmud qizi**

O‘zbekiston Milliy Universiteti

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada haqiqat va yolg‘on tushunchalarining inson hayotidagi o‘rni, ularning axloqiy, diniy va falsafiy jihatlari tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida Qur‘on, hadislar, Aristotel falsafasi, Alisher Navoiy asarlari hamda “Kalila va Dimna” kabi manbalarga murojaat qilindi. Shuningdek, hozirgi zamon va virtual hayotda haqiqat va yolg‘on muammolari ham ko‘rib chiqiladi. Maqolada rostgo‘ylikning jamiyat taraqqiyotidagi ahamiyati va yolg‘onning salbiy oqibatlari hamda mumkin bo‘lgan holatlari ochib beriladi.

Kalit so‘zlar: haqiqat, yolg‘on, rostgo‘ylik, axloq, ishonch, jamiyat, virtual hayot, falsafa, din.

KIRISH

Haqiqat va yolg‘on inson hayoti davomida asosiy o‘rin tutadigan tushunchalardir. Inson har kuni turli vaziyatlarda haqiqatni aytish yoki yolg‘on gapirish tanlovi oldida turadi. Haqiqat insonni komillikka, to‘g‘ri tanlovga va adolatga yetaklaydi, yolg‘on esa yomon illatligi sababidan insonni ham jamiyatni ham obro‘sizlantiradi. Ammo, yaxshilik uchun yashirilgan haqiqat va gapirilgan yolg‘on ham o‘z o‘rnida muhim, mumkin bo‘lgan holat hisoblanadi.

ASOSIY QISM

Islom ta‘limotida haqiqat (sidq) va yolg‘on (kizb) masalasi muhim axloqiy-me‘yoriy tushunchalardan biri hisoblanadi. Insonning iymoni, axloqi va jamiyatdagi o‘rni aynan uning rostgo‘yligi bilan baholanadi. Qur‘on va Hadislarda haqiqat doimo ulug‘lanib, yolg‘on esa keskin qoralanadi. Buyuk faylasuflar ham haqiqatni qadrlaganlar. Har qanday

manbada haqiqat ustunligi, yolg'onning umri qisqaligi bayon qilingan. Yahshilik uchun istisno holatlar ham mavjud.

NATIJA

Haqiqat jamiyat barqarorligini ta'minlaydi. Yolg'on, insonni obro'sizlantiradi, ishonchni yo'q qiladi. Istisno holatlar yahshilik niyatida qo'llanilishi mumkin.

MUHOKAMA

Turli manbalar haqiqatni eng muhim qadriyat sifatida ko'rsatadi. Haqiqat va yolg'on masalasi insoniyat tarixida eng muhim falsafiy muammolardan biri hisoblanadi. Inson har doim haqiqatni izlagan, yolg'ondan qochishga harakat qilgan. Bu jarayon qadimgi davrlardan boshlab hozirgi kungacha davom etib kelmoqda. Zamonaviy dunyoda esa yolg'on tez tarqalmoqda. Bu esa insondan ongli va tanqidiy fikrlashni talab qiladi. Yolg'on gapirgan inson hurmatini yo'qotadi, rostgo'y esa obro' topadi. Soxta axborotlar jamiyat fikrini noto'g'ri shakllantiradi.

Qur'oni Karimda:

“Ey mo'minlar! Allohdan qo'rqinglar va to'g'ri so'z gapiringlar.” (Ahzob surasi, 70-oyat)

“Ey iymon keltirganlar! Allohdan qo'rqinglar va rostgo'ylar bilan bo'linglar.”

(Tavba surasi, 119-oya):

“Yolg'on so'zdan uzoq bo'linglar.”(Haj surasi, 30-oyat)

“Haqni botil bilan aralashtirmanglar va haqiqatni bila turib yashirmanglar.”

(Baqara surasi, 42-oyat)

Hadislarda esa rostgo'ylik haqida:

“Rostgo'ylik yaxshilikka yetaklaydi, yaxshilik esa jannatga olib boradi. Inson rost gapirib yurib, Alloh huzurida rostgo'y deb yoziladi.”

Yolgʻon haqida:

“Yolgʻon yomonlikka yetaklaydi, yomonlik esa doʻzaxga olib boradi.” deb eʼtirof etiladi.

Agar haqiqatni aytish: inson hayotiga xavf tugʻdirsa, katta zulm yoki fitnaga sabab boʻlsa, unda vaqtincha sukut qilish mumkin, bu “zarurat” qoidasi bilan bogʻliq.

Hadislarda uch holatda gapni oʻzgartirish joizligi aytiladi: (urushda, er-xotin orasini yaxshilashda, odamlar orasini yarashtirishda)

Zero, shunday ekan doimo haqiqatga intilishimiz, yolgʻondan uzoqlashishimiz va ayrim holatlarda yahshilik uchun haqiqatni yashirib, yolgʻon gapirishimiz mumkin.

Qadimgi yunon faylasufi Aristotel haqiqatni borliq bilan bogʻlab tushuntirgan. Aristotelning fikricha: “Haqiqat — bu fikrning voqelikka mos kelishidir.” Yaʼni, haqiqatni narsalarni qanday boʻlsa, shunday ifodalash deb tushuntiradi.

Immanuel Kant esa haqiqatni axloqiy majburiyat sifatida talqin qiladi. Uning asosiy gʻoyasi: Yolgʻon har doim notoʻgʻri, haqiqat — inson burchi.

Alisher Navoiy oʻzining Mahbubul-qulub asarida: “Rostlik — nur, yolgʻon — zulmat” -deydi. Navoiy rostgoʻylikni insonning eng yuksak fazilati deb biladi.

Ammo, hozirgi hayotimizda yolgʻon tufayli oilaviy munosabatlar buzilishi, korrupsiya tufayli jamiyat rivojining sustlashishi, yoki firibgarlar tarafidan sodda, ishonuvchan xalqimiz fuqarolari nomiga kredit rasmiylashtirilishi kabi holatlar hali hanuz kuzatilib kelmoqda. Texnologiya asrida internet, ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalari orqali yolgʻon axborot tez tarqalmoqda.(feyk yangiliklar, manipulyatsiya, propaganda) Shu sababli haqiqatni aniqlash mezonlari, mantiqan va psixologik yondashgan holda ajrata bilishimiz kerak.

Xalqimizda bir keraksiz yolgʻon bor, koʻpincha shunay onalarni koʻramizki, ular farzandlarini “Ana boʻboʻ, baba Yaga, yoki ola buji kelyabdi”- deya qoʻrqitish orqali

uhlatishadi yoki tarbiyalashadi. Bu holat esa bolada birinchi yolg'on ko'nikmani hosil qilib, yolg'on gapirishni o'rganishiga birinchi turtki bo'ladi.

O'ramizda shunday insonlar ham borki, bir haqiqatga bir yolg'onni qo'shib o'sha insonni ma'lum muddat obro'sizlantirishadi. Haqiqat oshkor bo'lgan vaqtda esa o'z obro'larini butunlay yo'qotib qo'yishadi.

"Kalila va Dimna" asarida ham Dimna obrazi — patologik yolg'onchi (manipulyator) timsolidir. U arslon va ho'kiz orasiga soxta dalillar (sofistika) bilan nifoq soladi. Dimna o'z manfaati uchun haqiqatni bo'yab ko'rsatadi. Biroq, asar yakunidagi sud jarayoni haqiqatning mantiqiy isbotini ko'rsatadi: Dimnaning yolg'onlari bir-biriga zid keladi va u jazolanadi.

XULOSA

Haqiqat — reallikka mos, ishonchli va insonni to'g'ri yo'lga boshlovchi qadriyatdir. Yolg'on esa noto'g'ri bo'lib, ishonchsizlik va zarar keltiradi. Haqiqat va yolg'on o'rtasidagi tanlov har bir inson uchun muhimdir. Haqiqatni tanlagan inson jamiyat rivojiga hissa qo'shadi. Xulosa qilib aytganda, haqiqat doimo g'alaba qiladi, yolg'on esa baribir fosh bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

Qur'on

Hadislar to'plami

Aristotel asarlari

I.Kant asarlari

Alisher Navoiy asarlari

Kalila va Dimna